

MIRKARIM OSIM: TARIX VA TALQIN

Vazira Nimatovna SULTONOVA

o'qituvchi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

Annotatsiya

Maqolada Mirkarim Osimning tarixiy obraz yaratish mahorati tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: qissa, tarix, tarixiy obraz, badiiy obraz, "Singan setor", Mashrab, badiiy mahorat, an'ana.

МИРКАРИМ ОСИМ: ИСТОРИЯ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Вазира Ниматовна СУЛТОНОВА

преподаватель

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

Аннотация

В статье анализируется способность Миркарима Осима по созданию исторического образа.

Ключевые слова: повесть, история, исторический образ, художественный образ, «Сломанный сетор», Машраб, художественное мастерство, традиция.

Dunyo adabiyotidan ma'lumki, nasr nazmga nisbatan voqelikni qamrab olish imkoniyati keng va qulayroq. To'g'ri, o'tgan asrlar davomida turli millatlarda yirik epik voqelikni qamrab olgan "Shohnoma", "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon", "Xamsa", "Iskandarnoma" kabi she'riy dostonlar yaratilgan. Yevropa adabiyotida ham Gomerning "Illiada", "Odissey" dostonlari yoki dramatik asarlar nazmda yozilgan. Ularda bosh qahramonning jasurligi kuylangan. Epik dostonlar lirik va epik tur sintezlashuvi natijasida liro-epik turga mansub deb belgilangan. Epik voqelikning nazmda ifoda etib berilishi ayni qadimda faol bo'lgan romantik metodga xos ko'tarinki ohang, pafosning kuchli bo'lishi bilan ham xoslanadi. Qadim Sharqda asarlarning nazmda yaratilishi davr va kitobxon talabi, didi va saviyasiga monand ijod etilgan. Nazm she'rdagi ohang, ko'tarinkilikning kitobxonga ta'sirchan yetib borishida asosiy rol o'ynagan. XX asr boshidan e'tiboran nasr voqelikni haqqoniy yoritib beruvchi adabiy tur sifatida o'z imkoniyatlarini kengaytirib bordi. Shu ma'noda voqelik ko'lami, obrazlar tasviri,

ziddiyatlar, ruhiy tasvir holatlarini ochib berish nasrda erkinroq, har holda maydon kengligi nasrning imkoniyatlarini kengaytiradi. Nazmda talab etiladigan vazn, qofiya, radif, hajm har bir harakat-holatni shakl qolipida mahorat bilan bera olishni taqozo etadi. Qolaversa, bugungi kitobxon o'tgan asrlardagi kitobxon singari nazmdagi yirik dostonlarni emas, oddiy mutolaa oromini bag'ishlaydigan nasriy matnga ehtiyoji kuchliroq. Bu borada bugun yaratilayotgan turli mavzudagi roman turlari qatori tarixiy, ma'rifiy romanlar ham ayni nasrda o'z ifodasini topmoqda. Tariximizdagi buyuk hukmdor shaxslar Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy, Bobur qatorida tarixda muayyan g'oyalarni ilgari surgan va xalq orasida mashhur bo'lgan Boborahim Mashrab faoliyati haqida ham nasriy asarlar yaratilib kelinmoqda.

Bobirahim Mashrab haqida yaratilgan nasriy asarlarni janr jihatidan quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Roman janrida – Hamid G'ulomning “Mashrab”, Shuhratning “Mashrab” romanlari.
2. Qissa janrida – Mirkarim Osimning “Singan setor” qissasi.
3. Hikoya janrida – Ibrohim G'afurovning “Boborahimning sariq gullari”, “Hayo xaloskor” hikoyalari.

Yaratilgan har bir asarda davrning o'ziga xos ruhi ufurib turadi. Jumladan, Hamid G'ulomning “Mashrab” romani o'tgan asrda mafkuraviy hukmron qarashlar nuqtayi nazaridan yoritilgan. Asarda otashnafas shoir Mashrabning ziddiyatli hayot yo'li va ziddiyatlarning qarama-qarshi pallasida turgan eshonlar, diniy ulamolar, diniy-tasavvufiy tushunchalar mafkura talablari doirasida talqin etilgan edi. Mustaqillik arafasida ijtimoiy-siyosiy vaziyatning o'zgarishi, diniy erkinlik, milliy an'ana va urf-odatlarining qaytarilishi kishilar ongining o'zgarishiga olib keldi. Imon-e'tiqod, islom ma'rifati ko'p yillar o'z milliy o'zagidan uzoqlashtirilgan xalq uchun buloqdek ko'z ochdi. Adabiyot davr ko'zgusi deganlaridek, ayni odamlarning qalbidagi tashnalik, jar yoqasiga kelib qolgan mafkuraviy g'oyalar, ularning o'tgan yillar davomidagi salbiy oqibatlari badiiy adabiyotda aks eta boshladi. Mustaqillik shabodalari badiiy adabiyotga bir qancha imkoniyatlarni

berdi: *birinchidan*, adabiyot mafkuradan uzoqlashtirildi, erkin ijod maydoniga aylandi; *ikkinchidan*, davr muammolari badiiy adabiyotda o'z aksini topa boshladi; *uchinchidan*, tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyati erkin, hech qanday cheklovlarsiz yoritila boshlandi; so'fiy shayxlar, avliyolar hayoti sof o'z holicha talqin etildi. Aynan ana shunday vaziyatda ma'naviy merosimizning yaratuvchilari bo'lgan tarixiy siymolarning hayotini yangidan o'zbek xalqiga yetkazib berish zarurati yuzaga keldi.

O'zbek xalqining ardoqli adibi Mirkarim Osim garchi sovet davrida yashab ijod qilgan bo'lsada, asarlarida tarixni ro'y-rost tiklashga harakat qilgan iste'dodli adibdir. Tarixiy asar yozish yozuvchidan katta bilim, chuqur izlanish, tarixiy manbalar bilan ishlash va badiiy mahoratni talab etadi. Mirkarim Osim tariximizning buyuk siymolari haqida ko'plab asarlar yozib, o'zbek xalqini o'z tarixi bilan yaqinlashtirgan adib hisoblanadi. Uning Alisher Navoiy haqidagi turkum qissa va hikoyalari, "Zulmat ichra nur", "Astrobod" tarixiy qissasi, "To'maris", "Shiroq", "Iskandar va Spitamen", "Temur Malik", "Mahmud Torobiy", "O'tror", "Ibn Sino qissasi", "Aljabrning tug'ilishi", "Jayhun ustida bulutlar" kabi qissalari tarixni, buyuk shaxslar hayotini badiiy adabiyotda gavdalantirgan asarlardir. O'zbek xalqi adibning ko'plab ana shunday asarlari orqali o'z tarixini qayta o'zlashtirishga, o'rganishga qiziqishi ortdi. Yoshlar ongiga ajdodlar tarixini singdirish, ularning ma'naviyatini o'stirish va vatanparvarlik ruhida o'stirishda katta rol o'ynadi. Shu ma'noda Mirkarim Osim tarixni bugungi kun bilan bog'lagan, o'zbek xalqi oldida yozuvchilik mas'uliyati bilan katta vazifa bajarib ketgan ardoqli ijodkordir.

Adib tarixiy obraz yaratish mahoratini ishga solgan holda otashqalb shoir Boborahim Mashrabning badiiy obrazini yaratishga hissa qo'shdi. Mirkarim Osimning "Singan setor" qissasi ana shunday asarlardan biri bo'lib, unda Boborahim Mashrabning bolaligidan to umrining so'nggi – Balx hokimining buyrug'i bilan dorga osilishigacha bo'lgan faoliyati aks etgan. Agar Mashrab haqida nasrda yozilgan asarlardagi voqealar qamrovini qiyoslasak, anchayin katta farqlar ko'zga tashlanadi. Zero, "Adabiyotda biror voqea yoki bo'lmasa biron-bir

tarixiy shaxs obrazi bo'yicha bir necha asarlarning yaratilishi har bir yozuvchining hayot haqiqatiga yondashuvi, obrazli o'zlashtirish, ifoda usulini anglash jihatidan xarakterlidir" [6; 15]. Shu ma'noda har bir adibning o'ziga xos yondashuvi ularning uslubini, dunyoqarashi, ijodiy rejasini ham o'zida namoyon etadi. Yozuvchi Shuhratning "Mashrab" romani, taassuflar bo'lsinki, adibning bemorligi sabab tugallanmay qolgan. Hajman roman deb olingan bo'lsa ham qissa hajmidek voqealarni o'z ichiga oladi. Keyingi paytlarda tarixiy hikoyalar ijod qilayotgan adabiyotshunos olim Ibrohim G'afurovning "Gala" va "Alif" nomli hikoyalari ham Mashrabga atab yozilgan, mustaqillik tufayli erkinlik ruhi ufurib turadigan hikoyalar sirasiga kiradi. "Gala" hikoyasida Mashrab va shogirdi Pirmast bilan Ofoqxo'janing dargohidan ketganidan keyingi kunlari haqida hikoya qilinsa, "Alif" hikoyasida harfning ilohiy ma'nosi va uning ijtimoiy hayotdagi zuhuroti haqida so'z boradi. Mazkur asarlar sirasida tugallangan yagona yirik asarligi, qolaversa, Mashrab siymosiga imkon qadar xolis yondashilgani bilan "Singan setor" qissasi alohida o'rin tutadi.

Tarixiy asar yozishning o'ziga xos qiyinchiliklari bor. Masalan, rivoyat, hikoyatlar asosida yaratilgan "Shiroq", "To'maris" asarlarini yaratish birmuncha qulayroq. Sababi, kitobxon uning har bir detali, voqealar qamroviga qadar aniq bilmaydi va uni yozuvchining badiiy tafakkur olamida gavdalangani singari qabul qiladi. Yo'qolib ketgan haqiqatning badiiy talqin etilishi haqiqat deb qabul qilinadi va bu bilan adib tarixni qayta jonlanib, yashab qolishiga hissa qo'shadi. Amir Temur, Alisher Navoiy haqida yozishning qiyin va yengil tomonlari shundaki ular haqidagi ma'lumotlarning ko'pligi, yozuvchini faktlar bilan ishlashida aniq yo'lga yo'naltirib turadi. "Tarixiy asarlarda tarixiy haqiqat bilan badiiy haqiqat mos kelishi zarur. Aks holda, badiiy asar o'z qimmatini yo'qotishi mumkin" [6, 26]. Shu ma'noda, yozuvchi badiiy to'qimani qo'shishda o'ta ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Unda kitobxonning ishonchini yo'qotib qo'ymaslik, aniq voqealar chizig'ini noto'g'ri talqin tomon burib yubormaslikka intiladi. Qiyinchiligi, xalq ardog'idagi shaxsni o'z holicha gavdalantirish mas'uliyati yozuvchi zimmasida ustuvor turadi va shunga monand harakat qiladi. Mashrab haqida asar yozishning

anchayin murakkab jihatlar bor. Bunda Mashrabning hayoti va faoliyati afsonalarga aylanib ketgani, haqiqatni afsonadan ajratib olish lozimligi yozuvchini ikkilantiradi. Ayni asar yozish uchun adib katta tayyorgarlikdan o'tishi lozim. Dinni, tasavvuf ilmini, majoziy ma'nodagi talqin va sharhlay olish salohiyatini ham egallashi lozim. Tarixiy qissalar bo'yicha maxsus tadqiqot olib borgan Qobil Ko'boyevning yozishicha: "Tarixiy romanlarda bo'lgani kabi tarixiy qissalarda ham xarakter yaratish jarayonining o'ziga xos qiyinchiligi – prototipni kuzatish imkoni yo'qligi bilan belgilanadi" [6; 9]. Adabiyotshunos qayd etgan jihat aynan tarixiy asarni yaratishda yozuvchining ish jarayonidagi murakkablikni ko'rsatadi.

Asarda, avvalo, qissaning nomi e'tiborni tortadi. Asarga sarlavha qo'yish uning yarim kuchini belgilab beradi. Asardagi bitta detal sarlavhaga tanlangan. Mantiqan olib qaralganda, Mashrabdagi jununlik holati odatiy holatdan tashqarida, kuy tinglash jarayonida sarxush bo'lishi, aqliy chegaradan chiqib ruhiy hissiyotlar olamiga ko'chib o'tishi undagi ayni shu holatga muvofiq keladi. Voqea o'smir Mashrabning, aniqrog'i Boborahimning onasiga "setor olib bering" deb qilgan iltimosi bilan boshlanadi. Ona olib bergan setor, ya'ni tanbur shoirning umr yo'liga hamdam, hamnafas bo'ladi. Qissa so'ngida Balxda Mahmudxonning buyrug'i bilan begunoh Mashrabning qatl etilishi mana shu setorning, shoirning umrbodlik yo'ldoshining, ramziy ma'noda umr yo'lining sinishi, iste'dodning payhon etilishi ma'nolarini anglatadi. Singan setor asarda kichik bir detal bo'lsada, asar qahramonining umr yo'lini belgilab bergan katta ma'noni o'zida mujassam etgan. Singan setor – bu Mashrab qalb torlarining sinishi. Oshiq kishi uchun ko'ngilning sinishi – bu jonsiz tana. Yana kengroq ma'noda Mashrab umrining nihoyasi.

Asarni o'qir ekanmiz, beixtiyor xalq kitoblari uslubidagi "Qissai Mashrab", "Shoh Mashrab" yoki "Devonai Mashrab" nomli asarlar yodga tushadi. Sababi, Mashrab haqidagi barcha asarlar aynan mana shu qissa asosida yaratilgan. Kitob muqaddimasida muallif Mashrab haqida qisqacha ma'lumot berib, "avliyoi modarzod" ya'ni tug'ma avliyo edilar, deb ta'kidlaydi [2; 7]. Bunga Boborahimning ona qornida yetti oylik homila ekanligida onasi ikki dona uzum yeganida gapirgani haqidagi rivoyatni misol qilib keltiradi. Shu o'rinda aytib o'tish

joizki, bunday kishilarni majzubi solik yoki shunchaki majzub deyishgan. Bu haqda tasavvufshunos olim N.Komilov “Tasavvuf” kitobida shunday ma’lumot beradi: “ Jazba – tortish, Haqning bandalariga va bandalarning Haqqa intilishi, irodani Ilohga bog‘laydigan dard. U ko‘ngilni betoqat etib, faqru fano yo‘liga yetaklayveradi. Jazba qancha kuchli bo‘lsa, solik shuncha tez tariqat odobini o‘zlashtirib, qalb ko‘zi ochiladi, holga kiradi... Shunisi ham ma’lumki, jazba tug‘ma bo‘lishi yoxud suluk jarayonida solik qalbiga nuzul etishi mumkin ekan... Alisher Navoiy “Xamsa”sining ikki qahramoni Farhod bilan Majnun ham ana shunday tug‘ma jazba tekkan kishilardir. Tug‘ma faqirligi ko‘ringan solikni “majzubi solik”, suluk davomida jazba paydo qilgan solikni “soliki majzub” deb nomlaganlar”... [1; 33].

Ular bolaligadanoq turli noodatiy ishlari, xislatlari bilan ajralib turganlar. Boborahimning tug‘ilmasdan avval gapirishi, bolaligidayoq suv ostida soatlab tura olishini “Qissai Mashrab” muallifi mana shunday karomatlardan deb hisoblaydi. Biroq Mirkarim Osim dinsizlik mafkurasi hukmronlik qilgan bu davrda Mashrabni avliyo deb ayta olmas edi. Shuning uchun qissadagi bunday karomatlarni chetlab o‘tadi. Ularni o‘z asarida badiiy qayta ishlamaydi. O‘smir Boborahimning suv ostida soatlab yotishi motivini asariga kiritgan Mirkarim Osim uni quyidagicha izohlaydi: “Boborahim suvga kalla tashlab, yo‘q bo‘lib ketdi. Bolalar olinma-keyin yuzgacha sanadilar. Bolalar olinma-keyin yuzgacha sanadilar, biroz turib qaytadan sanay boshladilar. Boborahimdan hamon darak yo‘q...

Boborahim suv ostida bir uchi suv betiga chiqib turgan qamish nay orqali nafas olib, chalqancha tushib yotar edi. Qulog‘iga uzoqdan yig‘iga o‘xshash bir ovoz chalingandek bo‘ldi. “Hoynahoy buvim kelib dodlayotgan bo‘lsalar kerak. Ularni hafa qilmay”, deb suvdan bosh ko‘tardiyu, hovuzdan chiqib, qo‘lidagi qamish nayni uloqtirib yubordi. Hovuz bo‘yidagilar sarosimaga tushganlari uchun buni payqamay qoldilar” [2; 3].

Mashrabning noodatiy xatti-harakatlarini esa dindorlarning riyokorliklarini ko‘rsatish uchun, ataylab amalga oshirilgan, deb izohlaydi va kitobxonni shunga ishontiradi. Adabiyotshunos olim D.Quronov badiiy obraz yaratish borasida

portretning katta o‘rin tutishini quyidagi fikrlari orqali dalillaydi: “badiiy asarda portret xarakterologik belgilarga ega bo‘ladi. Ya’ni yozuvchi personaj siyratiga xos xususiyatlarni suratida aks ettirishga intiladi. Yozuvchi personaj qiyofasini ancha mufassal chizishi yoki uning qiyofasiga xos ayrim detallarni berish bilan kifoyalanishi ham mumkin” [4; 100]. Shu ma’noda Mashrab obraziga berilgan har bir chizgi uning qiyofasini ochishga xizmat qilgan. Uning xatti-harakatlari xarakteri, tashqi qiyofasini yoritishda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Shu o‘rinda Mirkarim Osim tabiat tasviri bilan qahramon ruhiyati uyg‘unligi misolida Mashrabni tabiat oshig‘i sifatida tasvirlaydi. Bu holat uni ilohiyot oshig‘i deb ta’riflay olmagan adibning ustaligiday ko‘rinadi: “Ertasi erta bilan olam nur daryosiga g‘arq bo‘lgan bir paytda Boborahim oq yaktagining etagini belbog‘iga qistirib, yo‘lga tushdi. Bozor g‘ovuri, olibsotarlarning shovqini, zohidlarning “huv-g‘uv”i bilan to‘lgan shahar orqada qoldi. Boborahim adirga ko‘tarilib, o‘t-o‘lan va rang-barang gullar hidi bilan to‘lgan havodan to‘yib-to‘yib nafas oldi. Yosh oshiqni quvonch bilan qarshi olgan shamol uning qulog‘iga bir nimalar deb shivirlar, osmonda pirillagan to‘rg‘aylar chuldirashib, uni qutlar edilar. Hashoratlarni asal bilan siylayotgan kapalakgullar kulib boqar, ichiga shabnam yig‘ilgan lolaqizg‘aldoqlar unga mayi nob sunar edilar... Nafas olib turgan o‘t-o‘lanlar hididan, yer hididan mast bo‘lgan Boborahim o‘zini podshohdek sezdi. Nazarida jamolining nuri yer yuziga tushib turgan zebo sanami guldek yuzidan pardasini olmay karashma qilayotganday edi” [2; 428].

Qissadagi voqealar rivojida Mashrabning xalqni o‘ylashi, kambag‘allarga qayishishi, dindorlarni hajv qilishi, so‘z bilan mot etishi natijasida oddiy xalq uni avliyo deb e’zozlagan, degan xulosaga kelinadi. Bunga Mashrab Ofoqxo‘ja dargohidan ketgandan so‘ng qalmoq xoni Xuntayshining tuyalarini uch yil boqib, haq olmasligi xonning “tila tilagingni” degan so‘roviga kambag‘allarni to‘ydirishi, xalqqa zulm qilmasligini iltimos qilganini isbot tariqasida keltiradi.

Qalmoq xoni Xuntayshining qizi bilan Mashrab orasida muhabbat mojarolari bo‘lib o‘tadi. Bu haqda “Qissai Mashrab”da quyidagicha keltiriladi. Qizning go‘zalligini ko‘rgan Mashrab “shoyadki shu qiz musulmon bo‘lib, doxili

behisht, anbar sirisht bo'lsa" deb o'zini unga oshiq qilib ko'rsatadi. Uning ishqida uch yil tuyaboqarlik qiladi. Natijada uning ishq chingiga ishongan qalmoq go'zali musulmon bo'ladi. Bu holat uning otasiga ham ta'sir qilib, qalmoq xoni ham pinhona imon keltiradi va qizini Mashrabga nazr qiladi. Mashrab shu o'rinda qizga rostini aytadi: "Ey nozanin, men Xudoyi ta'oloning isqu muhabbatida kuygaydurman, aning uchun mehnatu mashaqqat tortarman" [5; 58].

Bu holat "Singan setor"da quyidagicha talqin etilgan: "Mashrabning o'z kanizagi bilan uchrashib yurganini bilgan Ofoqxo'ja uni jazolab, erligidan mahrum etgach, qalmoq xoni Xuntayshining yurtiga tuyaboqarlikka yuboradi. Uch yil sahroda tuya boqqan Mashrab qaytishda qalmoq xonining qizini ko'radi va unga shirin so'z aytadi. Uni oshiq bilgan qalmoq xoni el orasidagi obro'sini ko'rsatish uchun qizini Mashrabga nazr qiladi.

Mirkarim Osim qissasida shu o'rinda soxtalik borday ko'rinadi. Xalq orasidagi obro'sini deb o'zi devona deb bilgan tuyaboqariga qizini berib yuborishi ishonarsiz chiqqan. Keyin Xuntayshining qiziga "men Xudoga oshiqman" deyishini "Qissai Mashrab"da e'tiqod kuchi, valiyliqi uchun deyilsa, Mirkarim Osim asarida esa bu so'z noilojlikdan aytilgan deyiladi: "Mashrab mahzunlik bilan boshini egib, yerga tikilib qoldi. Gapning po'skallasini aytib uning shaxtini qaytarmoqchi bo'ldiyu, lekin bunga izzat-nafsi yo'l qo'ymadi. Yonidagi jononaga: "Meni Ofoqxo'ja erlik quvvatidan mahrum, uylanish baxtidan bebahra qilib qo'ygan" deb ayta olarmidi!..

– Men insoniy muhabbat uchun emas, ishq ilohiy uchun tug'ilganman, peshonamga yozilg'oni shu! – dedi u hasrat to'la ko'zlarini hurliqoga tikib [2; 453].

Asar davomida Mirkarim Osim Mashrabni goh Xuntayshi, goh muxlislari tilidan bo'lsin bir-ikki bor "avliyo" deb ataydi. Balki bu "ehtiyotsizligi"ni "to'g'rilash" uchundir qissa so'ngida Mashrabni qatl ettirgan Mahmudxonning halokatini asoslash uchun tarixiy voqelikka murojaat qiladi.

Umuman olganda, Mirkarim Osim tarixiy asarlar yozish bo'yicha katta tajriba to'plagan adib sifatida kitobxonlar e'tiborini qozongan. Uning "Singan

setor” asari Mashrab hayoti va faoliyati otashqalb shoir hayot yo‘li ilk bora haqiqatga yaqin yoritilgan asar sifatida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun asar boshqa shu turkumdagi asarlardan o‘ziga xos bir qancha xususiyatlariga ko‘ra ajralib turadi:

1. Mashrab haqidagi turkum asarlar orasida “Singan setor” qissasi o‘zining tugal asar ekanligi va Mashrab shaxsiga imkon qadar xolis qaraganligi bilan ajralib turadi.

2. Qissada Mashrab asosan xalq dardini kuylovchi gumanist inson va ijodkor sifatida talqin etilgan bo‘lishiga qaramay uning tasavvufiy faoliyatiga ham imkon qadar to‘xtalinganki, bu Mirkarim Osimning o‘z davrida katta jasoratga ega ijodkor ekanligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннахр-Ўзбекистон, 2009.
2. Миркарим Осим. Синган сетор. Ziyonet.
3. Гафуров И. Дил эркинлиги. – Тошкент: Маънавият, 1998.
4. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Тошкент: Навоий университети, 2018.
5. Қиссаи Машраб. – Тошкент: Ёзувчи, 1992.
6. Қўбоев Қ. Ўзбек қиссаларида тарихий ҳақиқат ва бадиий маҳорат (60-80 йиллар): филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2003.
7. Юсупова М. Тарихий шахслар образининг лирик ва эпик талқини (Навоий образи мисолида): филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Фарғона, 2023.
8. Ҳаққул И. Тасаввуф сабоқлари. – Бухоро, 2004.